

Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxonalar va tashkilotlarda ishlovchi xodimlarning o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2020- yil yanvar-dekabr

Toshkent viloyati bo'yicha 2020- yil yanvar-dekabr oylarida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2870,4 ming so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 112,2 % ga oshganini ko'rish mumkin.

Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Olmaliq shahrida 4432,3 ming so'mni (viloyat o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 154,4 %), Bekobod shahrida 3447,2 ming so'mni (120,1 %), Zangiota tumanida 3414,8 ming so'mni (119,0 %), Nurafshon shahrida 3186,0 ming so'mni (111,0 %) Qibray tumanida 2926,2 ming so'mni (101,9 %) tashkil etdi. Aksincha, Bekobod tumanida 1688,4 ming so'mni (58,8 %), Bo'ka tumanida 1754,1 ming so'mni (61,1 %), Parkent tumanida 1839,3 ming so'mni (64,1 %), Chinoz tumanida 1921,5 ming so'mni (66,9 %), Piskent tumanida 1993,1 ming so'mni (69,4 %), Quyi Chirchiq tumanida 2043,5 ming so'mni (71,2 %), Oqqo'rg'on tumanida 2088,7 ming so'mni (72,8 %) tashkil etib, ushbu ko'rsatkichni pasayganligini ko'rish mumkin.



Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan o'zgarishi, %da
(2020- yil yanvar-dekabr, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz)




Toshkent viloyati bo'yicha yuridik shaxslarda ishlovchilarning o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi (qishloq xo'jaligi va kichik biznes subyektlaridan tashqari, ming so'm)


Hudud nomi	2019- yil yanvar-dekabr	2020- yil yanvar-dekabr	O'sish sur'ati, %da
Viloyat bo'yicha:	2558,1	2870,4	112,2
<i>shaharlar:</i>			
Nurafshon	2699,6	3186,0	118,0
Olmaliq	4248,5	4432,3	104,3
Angren	2005,0	2302,5	114,8
Bekobod	3064,3	3447,2	112,5
Chirchiq	2491,6	2731,2	109,6
Ohangaron	2395,2	2773,2	115,8
Yangiyo'l	1964,8	2125,9	108,2
<i>tumanlar:</i>			
Oqqo'rg'on	1810,1	2088,7	115,4
Ohangaron	2124,3	2299,4	108,2
Bekobod	1554,4	1688,4	108,6
Bo'stonliq	2104,2	2266,6	107,7
Bo'ka	1675,7	1754,1	104,7
Zangiota	2327,0	3414,8	146,7
Qibray	2328,9	2926,2	125,6
Quyichirchiq	1794,4	2043,5	113,9
Parkent	1695,2	1839,3	108,5
Piskent	1721,8	1993,1	115,8
O'rta Chirchiq	2021,9	2217,6	109,7
Chinoz	1871,1	1921,5	102,7
Yuqori Chirchiq	2129,7	2328,7	109,3
Yangiyo'l	2228,3	2606,8	117,0
Toshkent	1963,9	2142,1	109,1

Hududlar bo'yicha yuridik shaxslarda ishlovchilarning o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2020- yil yanvar-dekabr, qishloq xo'jaligi va kichik biznes subyektlarisiz, ming so'm)



Hududlar bo'yicha yuridik shaxslarda ishlovchilarning o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi, o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'atlari %da
(2020- yil yanvar-dekabr, qishloq xo'jaligi va kichik biznes tadbirkorlik subyektlarisiz)



Ish haqi. 2020- yil yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ish haqi tahlili quyidagilarni ko'rsatmoqda:



Ta'lim sohasida 1613 ta muassasalarda 76576 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 27,8 %) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 1 838 586,9 mln. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 19,4 %) tashkil etgan.

Ta'lim sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 1 979,6 ming so'mni tashkil etib, 2019- yilning mos davriga nisbatan 104,2 % ga o'sdi.

Sanoat sohasida 121 ta korxonalarda 105677 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 38,3 %) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 4 765 152,0 mln. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 50,2 %) tashkil etgan.

Sanoat sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2 948,5 ming so'mni tashkil etib, 2019- yilning mos davriga nisbatan 112,4 % ga o'sdi.



Qurilish sohasidagi 16 ta korxonalarda 5207 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 1,9 %) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 230 799,1 mln. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 2,4 %) tashkil etgan.

Qurilish sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3 668,9 ming so'mni tashkil etib, 2019- yilning mos davriga nisbatan 113,4 %ga o'sdi.



Ulgurji va chakana savdo sohasida 54 ta korxonalarda 4539 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 1,7 %) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 144 086,3 mln. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 1,5 %) tashkil etgan.

Ulgurji va chakana savdo sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2 608,9 ming so'mni tashkil etib, 2019- yilning mos davriga nisbatan 113,3 %ga o'sdi.



Sogʻliqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar koʻrsatish sohasida 130 ta muassasalarda 38625 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 14,0 %) xodim ishlagan boʻlib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 961 773,4 mln. soʻmni (jami ish haqi fondidagi ulushi 10,1 %) tashkil etgan.

Sogʻliqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar koʻrsatish sohasida ishlovchilarga hisoblangan oʻrtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 1 820,5 ming. soʻmni tashkil etib, 2019- yilning mos davriga nisbatan 127,0 %ga oʻsdi.



Tashish va saqlash sohasida 19 ta korxonalarda 3589 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 1,3 %) xodim ishlagan boʻlib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 80732,2 mln. soʻmni (jami ish haqi fondidagi ulushi 0,9 %) tashkil etgan.

Tashish va saqlash sohasida ishlovchilarga hisoblangan oʻrtacha oylik nominal ish haqi 1 845,3 ming soʻmni tashkil etib, 2019- yilning mos davriga nisbatan 115,7 %ga oʻsdi.



Moliyaviy va sugʻurta faoliyatida 83 ta muassasalarda 3275 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 1,2 %) xodim ishlagan boʻlib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 198 205,5 mln. soʻmni (jami ish haqi fondidagi ulushi 2,1 %) tashkil etgan.

Moliyaviy va sugʻurta faoliyati sohasida ishlovchilarga hisoblangan oʻrtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 4929,5 ming soʻmni tashkil etib, 2019- yilning mos davriga nisbatan 129,5 %ga oʻsdi.

Maʼlumot uchun: “Oʻrtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi” koʻrsatkichi iqtisodiyotda ish haqini baholashning uslubiy qoidalariga va xalqaro tavsiyalarga muvofiq, muayyan vaqt (soat, oy, yil) davomida xodim tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar (bajarilgan ishlar yoki koʻrsatilgan xizmatlar) evaziga ish beruvchilar tomonidan amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holda, soliq va boshqa toʻlovlarni oʻz ichiga oluvchi yollanma xodimlarning mehnatiga haq toʻlash tarzida jismoniy shaxslarga pul shaklida hisoblangan daromadlardan aniqlanadi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019- yil 30- dekabrda “Ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar va nafaqalar miqdorini oshirish toʻgʻrisida”gi 4555-son Qaroriga muvofiq, joriy yilning 1- fevralidan boshlab mehnatga haq toʻlashning eng kam miqdori 679330 soʻmni tashkil etadi.

Demografiya va mehnat
statistikasi boʻlimi
Tel: (71) 202-86-78